

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ 23/7-3/1
2023-yil «31» 08



Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
rektori Q. Ataniyazova
2023-yil «31» 08

ONKOLOGIYA
MODUL DASTURI

Bilim sohasi: 900000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910000 - Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi: 60911100 - Halq tabobati

Nukus – 2023

Fan/modul kodi Onkologiya 3.13		Uquv yili 2023-2024	Semestr 5	Kreditlar 2
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili Uzbek/rus/qq		Xaftadagi dars soatlari 3
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Onkologiya	44	18	72
2.	<p>1. O'quv modulining maqsadi va vazifalari</p> <p><i>Modulning maqsadi</i> - onkologik kasalliklar profilaktikasi, tashxisi, differensial tashxisi, umumiy terapiyasi, reabilitatsiyasi usullarining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishdan iborat, shuningdek, talabalarda turli yoshdagi onkologiya, bolalar onkologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, onkologik dunyoqarash asoslarini ilmiy-metodologik shakllantirish, onkologiya haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, talabalarni teoretik onkologiya asoslari bilan tanishtirish, o'smani birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, xavf guruhlarini aniqlash, o'sma oldi holat va kasalliklarini davolash, xavfli o'smalarning asosiy nozologik shakllarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini o'rganish hamda onkologik kasalliklarning zamonaviy davolash usullariga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilish. Bo'lajak mutaxassis organizm holatini ob'ektiv baxolashga asoslangan klinik fikrlashni shakllantirish.</p> <p><i>Modulning vazifalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> -onkologiya modulining maqsadi va vazifalarini, ularning ish faoliyatidagi ahamiyatini; - o'smalarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, turli aholi guruhlarida profilaktik ko'rikni tashkil qilish; -o'sma oldi kasalliklarini aniqlash, davolash va dispanser nazoratiga olish; - onkologiyada etika va deontologiya tamoyillari; - o'sma kasalliklarining asosiy simptomlari va sindromlari; - o'smalarning tashxisi, differensial tashxisi; - o'sma kasalligi bilan davolangan bemorlar reabilitatsiyasi. <p>O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni</p> <p>Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabalariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib, o'rnatilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.</p> <p>Onkologiya va bolalar onkologiyasi moduli tibbiyot oliygohlari xalq tabobati yo'nalishining 3 kurs talabalari uchun modul dasturi sifatida qabul qilingan. Bu modulda umumiy onkologiyani asoslari bo'lgan o'sma, o'sma oldi kasalliklarini erta tashxislash va zamonaviy usullarda davolashga (xirurgik, ximioterapiya va nur terapiya) bag'ishlangan.</p> <p>YUqorida ko'rsatilgan mavzularni talabalar har qanday xirurgik bo'limga borishdan oldin bilib, o'zlashtirib olishlari maqsadga muvofiqdir, chunki umumiy xirurgiya moduli nafaqat xirurgiya sohasida balki xirurgiyaga yondosh modullar: travmatologiya, akusherlik va ginekologiya, va xirurgiya yo'nalishidagi boshqa modullarni o'qitish, o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir.</p> <p>Modul dasturi boshqa modullar bilan aloqasi: Mikrobiologiya, normal va patologik fiziologiya, farmakologiya, odam anatomiyasi, patologik va topografik anatomiya, rentgenologiya, dala-harbiy xirurgiyasi, gematologiya.</p>			

Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Talaba:

- o'smalarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi;
- turli aholi guruhlarida profilaktik ko'riklarni tashkil qilish;
- o'sma oldi kasalliklarini aniqlash, davolash va dispanser nazoratiga olish to'g'risida;
- onkologiyada etika va deontologiya tamoyillari, o'sma kasalliklarining asosiy simptomlari va sindromlari, o'smalarning tashxisi, differensial tashxisi;
- o'sma kasalligi bilan davolangan bemorlar reabilitatsiyasi;
- onkologik bemorlarda palliativ va simptomatik davo to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi kerak.*

- aholi orasida chekish, ichish, va boshqa zararli odatlar haqida suhbat o'tkazish;
- aholi orasida sog'lom turmush tarzi, sport, turizm, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish haqida suhbat o'tkazish;

- ratsional oqatlanish, profilaktik dieta haqida suhbatlar o'tkazishni;
- o'sma kasalliklari profilaktikasida «xavfli guruhni» aniqlay bilish;
- kasalliklar simptomlari va sindromlariga asosan differensial tashxis o'tkaza bilish;
- diagnostik tekshirishlar xulosalarini interpretatsiya qila olishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

- onkologik bemorlar uchun hisobot hujjatlarini to'ldirish;
- teri qoplamini va ko'rinarli shilliq qavatlarini ko'zdan kechirish;
- sut bezini palpatsiya qilish, tashqi joylashgan o'smalarni palpatsiya qilish;
- tashqi joylashgan limfa tugunlarini palpatsiya qilish;
- Papanikalau bo'yicha sitologik surtma tayyorlash;
- Me'da - ichak tizimi o'sma kasalliklarida qorinni palpatsiya qilish, to'g'ri ichakni barmog bilan tekshirish;
- Buyraklar sohasini palpatsiya qilish, gastrostoma, kolostoma va epitsistostomalarni parvarish qilish *malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

2. Asosiy qism

2.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bwyicha umumiy kursatma va tavsiyalar:

1-mavzu. O'smalarning biologik xususiyatlari. Onkologiyada klinik gruppalar. TNM sistemasi. Onkologiyada davolash prinsiplari.

Sut bezi saratoni. Sut bezi saratoni ayollarda eng ko'p tarqalgan xavfli o'smalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda sut bezi raki o'rta yoshli ayollar o'rtasida asosiy o'lim sabablari.

Me'da saratoni. Etiologiya. Tasnifi. Patogenezi.

2-mavzu. Qizilo'ngach saratoni. 1 darajasi, ovqat o'tishining qiyinlashuvi, ovqatlanish jarayonida tiqilib qolishi, funksional disfagiya. O'smaning kattalashuvi, qizilo'ngach tirqishining berkilib qolish. 2 daraja va 3 darajasi.

Yo'g'on va to'g'ri ichak saratoni. Etiologiyasi. Tasnifi. Patogenezi. Klinik simptomlari.

3-mavzu. Limfomalar. Limfogranulyomatoz. Limfogranulyomatoz yoki Xojkin kasalligi – Berezovskiy, SHternberg Rid hujayra hosilalari morfologik kartinasini orqali xarakterlanuvchi, yomon sifatli limfatik kasalliklar guruhiga kiruvchi limfoproliferativ kasalliklar. Etiologiyasi, tasnifi.

4-mavzu. O'pka raki. Etiologiya. Markaziy o'pka saratonida kanserogen moddalarni havo orqali kirishi, periferik saratonda — kanserogenlarning qon va limfa oqimi bilan kirib kelishi muhim ahamiyatga ega va bu tajribalar orqali o'z isbotini topgan. O'pka saratoni

klirikasi: Birlamchi yoki mahalliy simptomlar. Ikkilamchi simptomlar. Umumiy simptomlar. Paraneoplastik belgilar. O'pka cho'qqisi periferik saratoni Penkost sindromi. 5-mavzu. Buyrak saratoni. Etiologiyasi. Tasnifi. Patogenezi. Klinik simptomlari. Prostata bezi saratoni. Qovuq saratoni. Teri saratoni. Teri melanomasi. Etiologiyasi. Tasnifi. Patogenezi. Klinik simptomlari.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ruyxati:

- 1-mavzu. O'smalarning biologik xususiyatlari. Onkologiyada klinik gruppalar. TNM sistemasi. Onkologiyada davolash prinsiplari.
- 2-mavzu. O'smalarning birlamchi profilaktikasi va ikkilamchi profilaktikasi.
- 3-mavzu. Saraton oldi kasalliklari. Skrining dasturlar.
- 4-mavzu. O'pka saratoni.
- 5-mavzu. Sut bezi saratoni.
- 6-mavzu. Qizilo'ngach saratoni.
- 7-mavzu. Me'da saratoni.
- 8-mavzu. Yo'g'on va to'g'ri ichak saratoni.
- 9-mavzu. Limfomalar. Limfogranulyomatoz.
- 10-mavzu. Buyrak saratoni.
- 11-mavzu. Teri saratoni. Teri melanomasi.
- 12-mavzu. YUmshoq to'qima sarkomalari.
- 13-mavzu. Suyak sarkomalari.
- 14-mavzu. O'pka, me'da, yo'g'on va to'g'ri ichak, siydik chiqarish a'zolari, ayollar jinsiy a'zolari saratonida kuzatiladigan patologik ajralmalar.
- 15-mavzu. Onkologik bemorlar reabilitatsiyasi. Palliativ va simptomatik terapiya.

3.1. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiya:

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:
Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

1. O'smalarni dori-darmon bilan davolash terapiyasi.
2. Ingichka ichak saratoni.
3. YUmshoq to'qima va suyak sarkomasi.
4. Ko'krak qafasi organlari o'smasi: plevra saratoni.
5. Ko'krak qafasi organlari o'smasi: ko'ks oralig'i a'zolari saratoni.
6. Ayollar jinsiy a'zolari o'sma kasalliklari: bachadon saratoni.
7. Ayollar jinsiy a'zolari o'sma kasalliklari: bachadon bo'yni saratoni.
8. Ayollar jinsiy a'zolari o'sma kasalliklari: tuxumdon saratoni.
9. Ayollar jinsiy a'zolari o'sma kasalliklari: vulva saratoni.
10. Erkaklar jinsiy a'zolari o'sma kasalliklari: moyak saratoni.
11. Gepatobiliar joylashuvi o'smasi: Jigar saratoni.

12. Hepatobiliar joylashuvi o'smasi: Meda osti bezi saratoni.
13. Retinablastomalar.
14. Xavfsiz o'smalar (o'pka, sut bezi ,qizilo'ngach, oshqozon, to'g'ri va yo'g'on ichak)

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Onkologiya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) echish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va echish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Onkologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashtirilgan patsientlar (bemorlar) kuratsiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan ishtirok etish;
- aholi orasida soglom turmush tarzini targib qilish, bolalarni yoshi va sogligiga boglik oqatlantirish tamoyillari haqida suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayerlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) echish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

	<p>5. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetentsiyalar: Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati: O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Onkologik bemorlar uchun hisobot hujjatlarini to'ldirish; 2. Teri qoplamini va ko'rinarli shilliq qavatlarni ko'zdan kechirish; 3. Sut bezini palpatsiya qilish, tashqi joylashgan o'smalarni palpatsiya qilish; 4. Tashqi joylashgan limfa tugunlarini palpatsiya qilish; 5. Papanikalau bo'yicha sitologik surtma tayyorlash; 6. Me'da - ichak tizimi o'sma kasalliklarida qorinni palpatsiya qilish, to'g'ri ichakni barmoq bilan tekshirish 7. Buyraklar sohasini palpatsiya qilish, gastrostoma, kolostoma va epitsistostomalarni parvarish qilish
3	<p>Modul davomida egallanadigan kompetentsiyalar (nomi, kodi) ro'yxati: UK 1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish; UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati; UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik; UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga taykompeyorlik; UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik; UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik; UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik; UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik; UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgarlik; UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik; UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik; UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.</p>
4.	<p>6. Talim texnologiyalari va masalalari Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: Talabalarining o'quv klinik amaliyoti bo'limlarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetr, spiroanalizator, tonometr, otoskop, oftal' moskop va sh.o''), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi. aybdor xis qilish», suyuksidal fikrlash va x.k. 2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar,

	<p>ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqichni taxlili namoyish qilinadi.</p> <p>3. Xulosa – o'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning o'maqsaadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish.</p> <p>Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim). O'qituvchi nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashga tayyor bo'lishlari lozim.</p> <p>Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.</p>
5	<p>7. Kriditlarni olish uchun talabar</p> <p>8. Onkologiya moduli bo'yicha kurs ishi rejada kuzda tutilmagan.</p> <p>Modul bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari</p> <p>Onkologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.</p> <p>Talabalarining modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqiligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - joriy nazorat (JN); - sinov (YAN) <p>Modulga ajratilgan 2,0 kreditni talaba JN davomida yig'adi.</p> <p style="text-align: center;">JORIY NAZORAT (JN)</p> <p>Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi.</p> <p>Onkologiya moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarish, bemorlar bilan ishlash, klinik audit yozish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.</p> <p>Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.</p> <p>Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.</p> <p>Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50:50).</p> <p>Joriy nazorat uchun ajratilgan 2,0 kredit semestrlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:</p> <p><i>6-semestr – 2,0 kredit</i></p> <p>Joriy nazorat – 2,0 kredit;</p>

	<p>Sinov - 0 (o'tilishi majburiy)</p> <p>Talaba 6 semestrda belgilangan kreditlarni to'plaganidan keyin semestr yakunida sinovli vazifani topshiradi va o'tish (saralash) balidan o'tsagina keyingi semestrda o'tadi. Talaba belgilangan kreditlarni to'plaganidan keyin semestr yakunida Sinov (YAN)ga kiritiladi.</p> <p>Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun sinov (YAN)gacha bo'lgan muddat beriladi.</p>				
6	<p>9. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. M.M. Mallaev, N.E. Ataxanova. Onkologiya. Darslik. 2019 y. (lotin tilida). 2. Muratxo'jaev N.K., Jo'raev M.D., Xudoyberdiyev T.K. Onkologiya. Darslik. –Toshkent. Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002 y. 3. Muratxodjaev N.K. i drug. Onkologiya. Uchebnik. –Toshkent. 2002 y. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. V.I. Chissov Onkologiya. Uchebnik. -Moskva. Izdatelskaya gruppа "GEOTAR-media" 2007 g. 2. SH.X. Gansev/ Onkologiya. Uchebnik. -Moskva. Meditsinskoe informatsionnoe agentstvo. 2006g. 3. Cherenkov V.G. Klinicheskaya onkologiya. Uchebnoe posobie. Moskva/ Izdatelskaya gruppа "GEOTAR-media" 2010 g. 4. Cherenkov V.G. "Klinicheskaya onkologiya". Uchebnoe posobie. Moskva. Spets-Lit. 2000 g. <p>5.3. Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.rambler.ru/oncology/, 2. www.esmo.org, www.medline.ru, 3. www.medlinx.ru, 4. www.oncoveb.ru, 5. www.yandex.ru/medicine/oncology 				
7	<p>Fan dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti huzuridagi talim sohalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashining 2023-yil -avgustdagi sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan, tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>				
8	<p>Modul dasturi bo'yicha masullar:</p> <table> <tr> <td>M.K. Qurbanazarov</td><td>QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası mudiri, PhD</td></tr> <tr> <td>Tursimuratova U.M.</td><td>QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası assistenti</td></tr> </table>	M.K. Qurbanazarov	QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası mudiri, PhD	Tursimuratova U.M.	QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası assistenti
M.K. Qurbanazarov	QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası mudiri, PhD				
Tursimuratova U.M.	QTI Otorinolarinologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası assistenti				
9	<p>Taqrizchilar:</p> <table> <tr> <td>Sabirov R.R</td><td>QTI Pediariya va bolalar jarrohligi kafedrası mudiri, t.f.n.</td></tr> <tr> <td>Mambetkadirov A</td><td>Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston filiali shifokori, t.f.n</td></tr> </table>	Sabirov R.R	QTI Pediariya va bolalar jarrohligi kafedrası mudiri, t.f.n.	Mambetkadirov A	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston filiali shifokori, t.f.n
Sabirov R.R	QTI Pediariya va bolalar jarrohligi kafedrası mudiri, t.f.n.				
Mambetkadirov A	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston filiali shifokori, t.f.n				